

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.T.Mavlonova	
Inklyuziv ta'lim o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari	214
Z.M.Xursanova	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish mazmuni	219
A.B.Mirzayev	
Effective ways to use the task-based approach in foreign language courses	223
Sh.A.Pakirdinova	
Blended learning texnologiyasining nazariy asoslari va uning ta'lim jarayonida ahamiyati	226
Sh.A.Pakirdinova	
Comparative analysis of online and traditional classroom learning	231
M.M.Umaralieva	
Fostering autonomy and engagement in higher education: self-regulated learning with multimedia tools	235
Z.N.Usmonov	
Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi bolalar jismoniy tarbiyasi	239
A.T.Akbarov	
Turli maktab yoshidagi o'quvchilar organizmining funksional holatini o'ziga xos xususiyatlari	246
U.K.Rahmonov	
Musiq madaniyat darslarini olib borishda ta'lim beruvchining o'rni	252
U.K.Rahmonov	
Musiq darslarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda loyiha texnologiyasini ahamiyati	256
V.Abdurakhmanov	
"The challenges of teaching english to international students"	261
D.Y.Irmatov	
Tarbiyachining kasbiy nazari va kasbiy amaliy tayorgarligi mazmuni monitoringi va maktabgacha ta'lim yoshidagilar "Ontogonez"ga mansub bilimlar	265
Н.Соби́ров, О.А.Акбаров, Э.Ф.Гиздулин	
Инновационная педагогическая деятельность	269

IQTISODIYOT

M.O.Baltabayeva, K.N.Raximova, M.K.Axmadaliyeva	
Ayollarning iqtisodiy mustaqilligi oilaning yaxshi yashashiga qo'shgan hissasi	273
K.N.Raximova, M.O.Baltabayeva, M.K.Axmadaliyeva	
Yashil iqtisodiyot fanida yashil iqtisodiyotga o'tish dolzarbligi va konseptual asoslari	276

FALSAFA

N.M.Axmadiyev	
Ijtimoiy rivojlanish va yoshlarni dunyoqarashida manfaatlar to'qnashuvi	281
I.Toirov	
Milliy davlatchilik asoslarini mustaxkamlash va fuqarolik jamiyati barpo etishning falsafiy jihatlar	284
I.A.Nurmatova	
Jamiyat ma'naviy muhitida oila institutining roli	289

SIYOSAT

B.P.Zokirov	
Jinoiy aktivlarni qaytarish bo'yicha universal va mintaqaviy xalqaro-huquqiy asoslari	293
S.M.Xoliqov	
Davlatning mudofaa qobiliyatining huquqiy asoslari	301
B.P.Zokirov	
Xorijiy ilg'or tajribalar jinoiy aktivlarni qaytarish mexanizmlarini rivojlantirishning muhim omil sifatida	304
S.M.Xoliqov	
Milliy xavfsizlikni ta'minlashda parlament quyi palatasi faoliyatidagi muammolar	314



UO'K: 316.62:392

JAMIYAT MA'NAVİY MUHITIDA OILA INSTITUTINING ROLI**РОЛЬ ИНСТИТУТА СЕМЬИ В ДУХОВНОЙ СРЕДЕ ОБЩЕСТВА****THE ROLE OF THE FAMILY INSTITUTION IN THE SPIRITUAL ENVIRONMENT OF SOCIETY****Nurmatova Iroda Akramdjonovna** 

Farg'ona davlat universiteti, Sotsiologiya kafedrasida katta o'qituvchisi falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyatning ma'naviy muhitida oila institutining o'rnini va ahamiyatini tahlil qilingan. Oila ma'naviy qadriyatlarini shakllantirish va avlodlarga yetkazishda asosiy ijtimoiy institut sifatida qaraladi. Maqolada oila muhitining jamiyat axloqiy mezonlari va ma'naviy yuksalishiga ta'siri, zamonaviy o'zgarishlar sharoitida uning oldida turgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan va tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматривается роль и значение института семьи в духовной среде общества. Семья рассматривается как основной социальный институт, формирующий и передающий духовные ценности от поколения к поколению. В статье анализируется влияние семейной среды на моральные нормы общества и духовное развитие, а также приводятся рекомендации по решению проблем, стоящих перед семьями в условиях современных изменений.

Abstract

This article examines the role and significance of the family institution in the spiritual environment of society. The family is regarded as a key social institution responsible for shaping and transmitting spiritual values across generations. The article analyzes the impact of the family environment on the moral standards and spiritual development of society, offering recommendations to address challenges faced by families in the context of modern changes.

Kalit so'zlar: oila, ma'naviyat, jamiyat, institut, qadriyatlar, axloq, taraqqiyot, muammo, tavsiyalar, zamonaviylik

Ключевые слова: семья, духовность, общество, институт, ценности, мораль, развитие, проблема, рекомендации, современность

Key words: family, spirituality, society, institution, values, morality, development, problem, recommendations, modernity

KIRISH

Jamiyatdagi ma'naviy muhitini shakllantirishda oila instituti asosiy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy tuzilmalardan biri hisoblanadi. Oila, avvalo, jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini saqlash va avlodlarga yetkazish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, u shaxsning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda boshlang'ich maktab rolini o'ynaydi. Hozirgi globallashuv va zamonaviy texnologiyalar sharoitida oilaning jamiyat ma'naviy muhitidagi o'rnini va ahamiyatini yuksaltirish, bu borada keng targ'ibot va tushuntirishlar olib borish zarurati yuzaga kelmoqda. Zamonaviy oila institutiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali uning barqarorligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir [1, 750].

O'zbekistonda oila institutining ahamiyatini Prezident Shavkat Mirziyoyevning islohotlarida alohida ta'kidlab, "Ma'naviy tiklanish va milliy yuksalish" dasturi doirasida oila qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda [2, 121]. Bu, o'z navbatida, ilmiy tadqiqotlarda oila va ma'naviyat o'rtasidagi o'zaro aloqani chuqur o'rganish ehtiyojini oshirmoqda. Ushbu maqolada oila institutining jamiyat ma'naviy muhitini shakllantirishdagi o'rnini, uning dolzarb muammolari va ularni hal qilish yo'llari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shu bilan birga, milliy va xalqaro tajriba asosida oila institutining barqarorligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR


Jamiyatning ma'naviy muhitida oila institutining roli ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan va u turli yondashuvlar bilan izohlangan. M. Qodirovaning tadqiqotlariga ko'ra, oila jamiyatning ma'naviy poydevori hisoblanadi va bu muhitda milliy qadriyatlarni shakllantirish va ularni avlodlarga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi [3, 50]. Shuningdek, S. G'ofurov zamonaviy texnologiyalar va globallashuv sharoitida oila institutining oldida turgan muammolarni tahlil qilib, bu jarayonda oila muhitining mustahkamligini ta'minlash masalalari bo'yicha keng o'rganishlar olib borgan [4, 40]. Uning fikricha, bugungi kunda oila instituti asosan texnologik rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan muammolar, avlodlar o'rtasidagi ma'naviy jarlik va axloqiy qadriyatlarga bo'lgan e'tiborning kamayishi kabi muammolarga duch kelmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy madaniy tendensiyalar oila muhitiga individualizm va iste'molchilik qadriyatlarini singdirib, oilaviy qadriyatlarning zaiflashishiga olib kelmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish uchun oilaviy aloqalarni mustahkamlash va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy mexanizmlarni ishlab chiqish zarur.

Rossiyalik olim V. Petrova oilaning jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarni tiklashdagi roli va bu jarayonni rivojlantirish strategiyalari haqida o'z ishlarida batafsil ma'lumot beradi. U oilani milliy xavfsizlik va ma'naviy barqarorlikning asosi sifatida ko'rsatib, uning jamiyatda tutgan o'rnini yanada mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi [5, 67]. V. A. Lukov esa oilaning ijtimoiy va ma'naviy vazifalarini chuqur tahlil qilib, uning jamiyatning axloqiy asoslarini shakllantirishdagi roli haqida fikr yuritadi [6].

O'zbekiston olimlari tomonidan oila institutining milliy xususiyatlari alohida yoritilgan. N. Karimovning tadqiqotlari yosh avlodni tarbiyalashda oila institutining o'rnini va ahamiyatiga bag'ishlangan. Uning fikricha, oila muhitida milliy va zamonaviy qadriyatlarning uyg'unlashuvi jamiyatning ma'naviy rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi [7, 25]. Shu bilan birga, M. G. Cherepanov oilaning ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish va ijtimoiy munosabatlarga ta'siri bo'yicha empirik tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlari oilaviy munosabatlarning jamiyatning ma'naviy yuksalishidagi rolini yoritadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Oila instituti jamiyatning asosiy ma'naviy poydevorlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning axloqiy qadriyatlari, ma'naviy me'yorlari va urf-odatlar avvalo oilaviy muhitda shakllanadi. Oila insoniyatning axloqiy-psixologik o'sishida birlamchi tarbiyaviy muhit bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, oilaning jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlashdagi roli ham muhim ahamiyatga ega. Ma'naviyatning asosiy ko'rsatkichlari bo'lgan vijdonlilik, halollik va o'zaro hurmat kabi tamoyillar oilada shakllanadi va mustahkamlanadi.



1-rasm. Oila va jamiyatning o'zaro bog'liqligi

Bugungi globallashuv sharoitida oila institutiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar soni ortib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar, iqtisodiy bosim va ijtimoiy madaniyatning tezkor o'zgarishi kabi jarayonlar oilaning parchalanishiga sabab bo'lmoqda. Oilalar parchalanishining asosiy omillaridan biri iqtisodiy muammolar bo'lib, ular turmush sharoitining yomonlashuvi va oilaviy nizolarni kuchayishiga olib keladi. Shuningdek, globallashuv jarayonida iste'molchilik qadriyatlarining kuchayishi va individualizmning o'sishi ham oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ma'naviy uzilish ham oila institutining zaiflashishiga olib keluvchi omillardan biridir. Avlodlar

FALSAFA

o'rtasidagi bog'lanishning zaiflashuvi, urf-odatlar va qadriyatlarga bo'lgan e'tiborning pasayishi oilaviy qadriyatlarning zaiflashishiga olib keladi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning haddan tashqari ko'p ishlatilishi oilaviy muloqotni cheklab, ajratilganlik va yolg'izlanish hissini kuchaytiradi. Quyidagi jadvalda oila institutini rivojlanishida to'siq bo'layotgan omillarning qisqcha ta'rif va yechimlari sanab o'tilgan.

Muammo nomi	Ta'rif	Qisqacha yechim
Ijtimoiy ajralish	Oila a'zolari o'rtasidagi hissiy va ijtimoiy bog'lanishning zaiflashuvi.	Oilaviy muloqotni rivojlantirish va hissiy aloqalarni kuchaytirish.
Iqtisodiy qiyinchiliklar	Oilaviy daromad yetishmovchiligi va moddiy qiyinchiliklar.	Davlat tomonidan moddiy yordam va oilaviy daromadni qo'llab-quvvatlash dasturlari.
Globallashuv ta'siri	Milliy va oilaviy qadriyatlarga iste'molchilik va individualizmning ta'siri.	Milliy qadriyatlarni targ'ib qilish va globallashuvning salbiy ta'sirini kamaytirish.
Texnologiyaning ta'siri	Oilaviy muloqotning ijtimoiy tarmoqlar va raqamli vositalar bilan cheklanishi.	Texnologiya bilan muloqotni boshqarish va oilaviy vaqtni ko'paytirish.
Avlodlar o'rtasidagi tafovut	An'anaviy qadriyatlar va tarbiya usullarining avlodlar o'rtasida uzilishi.	Tarbiya va qadriyatlar bo'yicha oila a'zolari o'rtasida bilim almashinuvini rag'batlantirish.
Oilaviy nizolar	Oila a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar va nizolarning ko'payishi.	Oilaviy maslahat xizmatlarini rivojlantirish va nizolarni hal qilish usullarini o'rgatish.

1-jadval. Oila institutining rivojlanishiga to'siq bo'layotgan omillar.

Oilani parchalanishdan asrash va uning jamiyat ma'naviy muhitidagi barqarorligini ta'minlash uchun bir nechta strategik yondashuvlar zarur. Eng avvalo, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga asoslangan tarbiya mexanizmlarini qayta tiklash kerak. Oilalarda avlodlar o'rtasidagi aloqani mustahkamlash, oilaviy muloqotni rivojlantirish va milliy qadriyatlarga e'tiborni kuchaytirish jamiyatning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat siyosati darajasida oilalarni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish muhimdir.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, oila instituti jamiyatning ma'naviy muhitini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli, oilani himoya qilish va uni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar nafaqat oila, balki jamiyatning umumiy barqarorligi va farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, oila instituti jamiyatning ma'naviy muhitini shakllantirishda markaziy o'rin tutadi. Oila orqali jamiyatda axloqiy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar avlodlarga yetkaziladi. Bu jarayon jamiyat barqarorligini va taraqqiyotini ta'minlash uchun muhimdir. Shu bilan birga, zamonaviy global o'zgarishlar, texnologik rivojlanish va iqtisodiy qiyinchiliklar oila institutining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan asosiylari hisoblanadi. Tahlilarga asoslanib shuni ayta olamizki, oilaning jamiyatdagi o'mini mustahkamlash uchun bir qator muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Oilalar ichida ma'naviy aloqalarni rivojlantirish, oilaviy muloqotni rag'batlantirish va an'anaviy qadriyatlarga e'tiborni oshirish muhim yo'nalishlardan biridir. Shuningdek, davlat tomonidan oilalarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kuchaytirish, moddiy yordam ko'rsatish va zamonaviy muammolarni hal qilishga qaratilgan siyosat olib borilishi lozim. Oilalar o'rtasidagi ma'naviy va hissiy bog'lanishni mustahkamlash nafaqat oila barqarorligini, balki jamiyatning ma'naviy tiklanishini ham ta'minlaydi. Oila va jamiyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning barqarorligi va rivoji jamiyatning umumiy farovonligiga xizmat

qiladi. Shu sababli, oila institutining zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirilgan holda qo'llab-quvvatlanishi va rivojlantirilishi bugungi kundagi asosiy vazifalardan biridir. Oila va jamiyat o'rtasidagi ushbu uzviy bog'liqlikni saqlash orqali biz kelajak avlodlar uchun barqaror va ma'naviy yuksak ijtimoiy muhit yaratishga erishamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Nuriddin o'g'li I. X. Oila va jamiyatda ayollarning o'rni // *O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi abdulla qodiriy nomidagi jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbekiston xotin-qizlar "olima" uyushmasi*. – C. 749.
- [2] Sh. Mirziyoyev "Ma'naviy tiklanish va milliy yuksalish dasturi" rasmiy nutq, 2020.
- [3] M. Qodirova, "Oila va jamiyat: Milliy qadriyatlarning barqarorligini saqlash", *O'zbekiston falsafasi va ijtimoiy fanlar jurnali*, vol. 12, no. 3, pp. 45-53, 2021.
- [4] S. G'ofurov, "Globallashuv sharoitida oila institutining dolzarb muammolari", *Ma'rifat va tarbiya ilmiy to'plami*, vol. 7, no. 1, pp. 33-40, 2020.
- [5] A. V. Petrova, *Duxovnost' i obshchestvo: Sotsial'nye i kul'turnye aspekty*, Moscow: Nauka, 2019.
- [6] V. A. Lukov, "Sem'ya kak sotsial'nyy institut: Problemy i perspektivy", *Sotsial'nye nauki i sovremennost'*, vol. 11, no. 4, pp. 65-72, 2020.
- [7] N. Karimov, "Oila va tarbiya: Yosh avlodni axloqiy tarbiyalashda ma'naviy qadriyatlarning ahamiyati", *O'zbek tili va adabiyoti ilmiy jurnali*, vol. 5, no. 2, pp. 20-27, 2021.